

QOZOG‘ISTON VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IQTISODIYOTI

Olimova Guli

Toshkent kimyo texnologiya instituti
Yangiyer filiali Iqtisodiyot yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda rivojlanib borayotgan mamlakatlar qatoriga kirgan Qozog‘iston va O‘zbekiston Respublikalarining qilayotgan eksport va impori bundan tashqari ularning yalpi ichki mahsuloti haqida umumiy ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: iste‘mol narxlar, raqamli yirik savdo, “O‘zbekiston 2030”, deregulatsiya, strategik investitsiyalar.

Kirish. Qozog‘iston Respublikasi hozirgi kunda JSTga a‘zo davlatlardan biri hisoblanadi. Qozog‘iston Respublikasi aholi soni kam bo‘lishiga qaramasdan ko‘plab mamlakatlarga neft va neft mahsulotlari, tabiiy gaz, qora metallar, kimyo, don, jun, go‘sht va ko‘mirni eksport qiladi.

Respublika hududida 19 900 177 kishi istiqomat qiladi bu esa O‘zbekiston aholisining 54% ni tashkil qiladi. Qozog‘istonning 3 ta hududi sanoat zonasi hisoblanadi. Bular: Shimkent, Olmaota, Ostona


Qozog‘iston minerallar va metallarga boy davlatdir. Chorvadorlik va g‘allachilikka ko‘proq e‘tibor beriladi va eng dashtli yerlari bilan qishloq xo‘jalikida muhim ahamiyatga ega. Respublika 2000-yil va 2002-yillarda Yevropa Ittifoqi va AQSH davlatlari tomonidan ”BOZOR IQTISODIYOTI MAMLAKATI” maqomini olgan. Qozog‘iston YAImi 261,42 milliard AQSH dollari tashkil etadi va bu aholi jon boshiga 13 136,6 AQSH dollari tashkil etadi.



2023-yil Markaziy Osiyo mintaqasining yalpi ichki mahsuloti(YAIM)ning o‘shish surati 5,3% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 5% ni, 2025-yilda esa 5,1 % darajasida bo‘lishi kutilmoqda.

O‘zbekiston va Qozog‘iston mintaqaning asosiy davlatlari sifatida bu iqtisodiy jarayonda muhim ro‘l o‘ynaydi, bunda O‘zbekiston Respublikasi 2024-yilda 5,2 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Chunki O‘zbekistonda iste‘mol narxlari 11,6 % ga o‘shishi kutilmoqda. Qozog‘iston Respublikasi uchun OTB hisobiga ko‘ra, 2024 va 2025-yillarda 5,3 foizga yetishi kutilmoqda. Ikkita davlat ham mustaqillikdan so‘ng, 1991-yildan 2023-yilgacha YAIMning o‘shishi O‘zbekiston Respublikasida 564,43%ni tashkil etgan va shu yillar oralig‘ida Qozog‘iston Respublikasida 949,68%ni tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin.

Qozog‘iston Respublikasida asosan neft, ko‘mir, temir rudasi, marganets, xromit, qo‘rg‘oshin, rux, mis, titan, boksit, oltin, kumush, fosfatlar, oltingugurt, uran, temir va po‘lat, traktorlar va boshqa qishloq xo‘jaligi mashinalari, elektr dvigatellari, qurilish materiallari kabi maxsulotlarni ishlab chiqaradi. Qozog‘iston qora metallurgiya sanoati respublika sanoati mahsulotining 12,5% dan ortig‘ini ishlab chiqaradi. Qozog‘iston Respublikasi temir rudasi zahiralari bo‘yicha dunyodagi top 10 davlatlar qatoriga kiradi va uning jahon zahiralardagi ulushi 6% ni tashkil etadi. Mamlakat hududidan qazib olinayotgan temir rudasining 70% to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksportga yo‘naltiriladi.



Bugungi kunda Qozog‘iston Respublikasi o‘z mahsulotlarini O‘zbekiston, Xitoy, Tojikiston va boshqa davlatlarga eksport qilmoqda. Qozog‘iston o‘z aloqalarini Xitoy bilan yaxshiladi va o‘zaro eksport va importni yo‘lga qo‘ydi.


Bundan tashqari Qozog‘iston O‘zbekistonning uchinchi raqamli yirik savdo hamkori hisoblanadi va katta miqdorda neft mahsulotlari, don, cho‘yan, po‘lat va

boshqa tovarlarni import qiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti jadal tezlik bilan rivojlanmoqda va ekspertlar bizning iqtisodiy taraqqiyotimizni aholi soni bilan bog‘liq deyishyapti chunki yalpi ichki maxsulot hajmi 2023-yilda 6%ga o‘sgan. Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish uchun xususiylashtirish jarayoni jadallik bilan davom etmoqda. Davlatning biznesga bo‘lgan tasirini 30% ga qisqartirish va JSTga qo‘shilish talablarini asta-sekinlik bilan qabul qilishmoqda va bu jarayonni bozordagi amaliyotini ham sinab ko‘rishmoqda. O‘zbekistonning navbatdagi iqtisodiy o‘zgarishlar jarayoniga yangi ustuvorlik belgilandi. Bu strategiya “O‘zbekiston 2030“ hisoblanadi. Strategiya mamlakatni o‘rta daromaddan yuqoriroq bo‘lgan davlat maqomiga erishish maqsadlarini belgilab beradi. Bunga deregulatsiya strategik investitsiyalar va eng so‘nggida JSTga a‘zo bo‘lish bilan erishiladi. 2024-yilning yetti oyida O‘zbekiston Respublikasi savdo-aylanmasi 36,8 mlrd dollarni tashkil etgan bu esa 2023-yilning shu oylariga nisbatan 1,86 mlrd dollar yoki 5,3 foizgan ko‘p. Respublika eksportining qisqarishi oltin yetkazib berishning kamayishiga bog‘liq hisoblanadi. Masalan; o‘tgan yilning yetti oyida xorijda 5,64 dollarlik qimmatbaho metallar yetkazib berilgan bo‘lsa bu yilning shu yettita oyiga kelib bu ko‘rsatkich 4,19 mlrd dollarga tushgan.



O‘zbekiston aholi bugungi kunda 36 412 350 kishini tashkil etadi va O‘rta Osiyoning eng ko‘p aholiga ega bo‘lgan davlati hisoblanadi. Yillik aholining ko‘payish darajasi 2,1%ni tashkil qiladi. YAIM(yalpi ichki maxsuloti) 90,89 mlrd AQSH dollarni tashkil qiladi va YAIM aholi jon boshiga nisbati 2 496,1 AQSH dollarni tashkil qiladi.



2023-yilda O‘zbekistonning real yalpi ichki mahsuloti investitsiyalar, xususiyy iste‘mol va eksport hisobi 6 % ga o‘sgan va real kreditlar 2021-2022-yillarda 5,1 % ni tashkil qilgan va 2022-2023-yillarda 11,6% ga o‘ydi. Iste‘mol narxlari inflyatsiyasi keyingi 7 yil ichida eng past darajadagi ko‘rsatkichga erishdi, ya‘ni 2022-yilda 12,3% dan 2023-yilda 8,8% ni tashkil qilgan. 2023-yil o‘zbek so‘mi AQSH dollariga nisbatan 9 foizga qadrsizlanganligi ko‘rish mumkin.

Oltin-zaxiralari yetarli darajada saqlanib qoldi va ularning hajmi 2023-yilda 34,6 milliard dollarga yetgan. Bu resurslar 8 oy davomida import xarajatlarini qoplashga bimalol yetadigan summasini tashkil qilgan. Shu bilan birga kambag‘allik darajasi 2022-yilda 5 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda 4,5 % ni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichlardan kambag‘allik darajasi 1 yil ichida 0,5% ga tushganini ko‘rishimiz mumkin va bu ko‘rsatkich 2024-yilda 4,3% ni tashkil qilishi kutilmoqda. Oltin sotuvi bo‘yicha 2023-yilning o‘zida 8,15 mlrd dollarga yetgan va bu oldingi yildan ikki baravar ko‘p hisoblanadi. Sabzavot va mevalar savdosi 1,76 mln tonnaga yetgan va qiymat jihatdan 1,18 mlrd dollarga oshgan. Biz bu mahsulotlar eksportining asosiy qismi Rossiya (37%), Pokiston (16,7%), Xitoy (12,3%) va Qozog‘iston (10,3%) ga yuboriladi. Donli ekinlar va undan tayyorlangan mahsulotlar eksporti 478,8 mln AQShni tashkil qilgan va xorijga avtomobillarni eksport qilishning hajmi 127,5 mln AQSH dollarga yetgan. Gaz eksporti esa o‘tgan yilgi ko‘rsatkichdan ikki baravarga oshgan va uning hajmi 529,9 mln AQSH dollarga teng.

(2023- yil yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

XXR	Rossiya	Qozog'iston	Turkiya	Koreya Respublikasi
TSA – 9 454,9	TSA – 7 034,5	TSA – 3 229,8	TSA – 2 350,5	TSA – 1 699,1
Eksport: 1 855,5 Import: 7 599,5	Eksport: 2 326,6 Import: 4 707,9	Eksport: 1 067,0 Import: 2 162,8	Eksport: 1 016,4 Import: 1 334,1	Eksport: 32,7 Import: 1 666,4
 21,1 %	 15,7 %	 7,2 %	 5,3 %	 3,8 %
Turkmaniston	Germaniya	Qirg'iz Respublikasi	Fransiya	Afg'oniston
TSA – 830,3	TSA – 784,2	TSA – 753,8	TSA – 658,8	TSA – 615,3
Eksport: 129,4 Import: 700,9	Eksport: 61,0 Import: 723,2	Eksport: 537,4 Import: 216,3	Eksport: 307,6 Import: 351,2	Eksport: 608,7 Import: 6,6
 1,9 %	 1,8 %	 1,7 %	 1,5 %	 1,4 %

Xulosa. Tahlil natijalariga ko'ra O'zbekiston va Qozog'iston iqtisodiyotidagi imkoniyatlar sezilarli darajada ajralib turadi. Chunki Qozog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasiga qaraganda sanoatlashib bo'lgan davlatdir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyodagi davlatlardan o'zining qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ajralib tursa, Qozog'iston Respublikasi o'zining ishlab chiqarishi va sanoati bilan ajralib turadi. O'zbekiston va Qozog'iston Respublikasi bir-birini to'ldirib turuvchi davlat hisoblanadi. Biz o'z mahsulotlarimizni eksport yoki import qilishda Qozog'iston Respublikasi orqali amalga oshiramiz. Agarda biz 2030-yilgacha jadallik bilan ishlab chiqarishni rivojlantirsak shu yilgacha Qozog'iston Respublikasiga yetib olishimiz kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.stat.uz/uz/>
2. <https://databank.worldbank.org/>
3. <https://www.gazeta.uz/ru/>
4. <https://uz.m.wikipedia.org/>